

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHOYMARDONOV ILHOM ALIXONOVICH**

**SURXON VOHASI BOLALAR FOLKLORI  
(O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TASNIFI VA BADIYATI)**

**10.00.08 – Folklorshunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shoymardonov Ilhom Alixonovich**

Surxon vohasi bolalar folklori (o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati) ..... 3

**Шоймардонов Илхом Алихонович**

Детский фольклор Сурханского оазиса (специфические особенности, классификация и поэтика)..... 27

**Shoimardonov Ilhom Alihonovich**

Children's folklore of the Surkhan oasis (specific features, classification and poetics) ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHOYMARDONOV ILHOM ALIXONOVICH**

**SURXON VOHASI BOLALAR FOLKLORI  
(O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TASNIFI VA BADIYYATI)**

**10.00.08 – Folklorshunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4262 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** O'rayeva Darmon Saidaxmedovna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Sariyev San'atjon Matchonboyevich  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Turg'unov Sherali Dolixonovich  
filologiya fanlari bo'yicha falasafa  
doktori PhD, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «15» may kuni soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail:buxdu\_rektor@buxdu/uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazda tanishish mumkin (1629 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil «3» may kuni tarqatildi.  
(2024-yil «3» may daqi N1 -raqamli reestr bayonnomasi).



**Y.S.Saidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
v.b. filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**A.R.Axmedov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**S.M.Sariyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xalqlari adabiyotida kattalar va bolalar tomonidan yaratilgan og‘zaki badiiy ijod namunalarining alohida o‘rni bor. “Bolalar folklori” sifatida qaraladigan bu ijod durdonalari o‘ziga xos janriy tarkibi, badiiy ijro xususiyati, etnofolkloristik va etnodidaktik mohiyati, etnopedagogik vazifalariga ko‘ra diqqatni tortadi. Kelajak avlodning axloqiy-ma‘naviy tarbiyasi, jismoniy-ruhiy o‘shiga ta’sir ko‘rsatuvchi bunday folklor durdonalari har bir xalqning madaniy turmush tarzi, insoniyat ertasi haqidagi orzu-o‘ylarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo folklorshunosligida har bir hududda yashovchi aholining o‘zligini, yosh avlod tarbiyasiga munosabatini aks ettiruvchi bolalar folklorini to‘plashga, ilmiy jihatdan o‘rganishga hamisha e’tibor yuqori bo‘lgan. Uning janriy tizimi va tarkibi, tarixiy-genetik, ijtimoiy-madaniy, ma‘naviy-ruhiy asoslari, taraqqiyot bosqichlari, struktural-semantik, g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion ijro xususiyatlari, postfolklor tarzida yashash qonuniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalar sifatida saqlanib kelmoqda. Bu borada Surxon vohasida keng tarqalgan bolalar folklorining janriy rang-barangligini areal va lokal jihatdan ilmiy tadqiq qilish shunday dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Ma‘naviy qadriyatlarga e’tibor oshirilgan milliy mustaqilligimiz davrida bolalar folklorini barcha hududlar bo‘yicha to‘plash va tadqiq etish masalasiga e’tibor yanada ortdi. Zero, “...nomoddiy madaniy meros sohasida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, etnofolklor ekspeditsiyalarini uyushtirish”<sup>1</sup> bugungi folklorshunoslik ilmi oldida turgan hamda Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biri sanaladi. Chunki folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa, bu – insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir<sup>2</sup>. Shuning uchun bolalar folklori janrlarining lokal, o‘ziga xos ijod va ijro xususiyatlarini ham alohida tizim sifatida ochish dolzarb va muhim masalalardan biridir. Bolalar folklori genezisi va poetikasiga aloqador xususiyatlarni aniqlash o‘zbek folklori badiiyati qonuniyatlarini asoslash imkonini beradi. Bu kabi muhim vazifalarning ilmiy hal qilinishi nazariy folklorshunosligimiz ufqlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-sonli ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi 59-son “Boysun bahori xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, mazkur

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son Qarori.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019. 7 aprel. – № 68.

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon va rus folklorshunosligida bolalar folklorini o'rganish bo'yicha E.B.Taylor, A.Divayev, A.K.Borovkov, V.P.Anikin, G.D.Kogan, M.N.Melnikov, V.Vinogradov, L.P.Potapov, E.V.Pomeranseva<sup>3</sup> kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlari alohida e'tiborni tortadi.

O'zbek folklorshunosligida bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari, janrlar tarkibining tasnifi, tarixiy asoslari va poetikasi masalalari G'.Jahongirov, O.Safarov, Sh.Galiyev, N.Qurbonova, S.Avezov, N.Safarova, H.Ro'zmetov, Sh.Turg'unov singari olimlar tomonidan tadqiq etilgani kuzatiladi.<sup>4</sup> Ayniqsa, O.Safarov o'zbek folklorshunosligida birinchi bo'lib bolalar folklori janrlarining yaxlit bir tizim ekani, u ham kattalar, ham bolalar ijrochiligi va ijodkorligi hosilasi sifatida yaratilganini asoslab, ularga mos atamalarni barqarorlashtirib, har bir janr tabiati va badiiyatini ochib berish yo'llarini ko'rsatib berdi.<sup>5</sup>

O'zbek bolalar folklorini yig'ish, to'plam holida nashr qilishda G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy, Elbek, B.Rahmonov, O.Safarov, Y.Sultonov, N.Rahmonov, Sh.Turdimov, M.Yoqubbekova, S.E.Turk, K.Nurjonov, M.Jo'rayev va Sh.Shomusarovlar<sup>6</sup> xizmatlari diqqatga molik.

O'tgan asrning 1926-30-yillaridan boshlab Surxondaryo vohasiga H.Zarifov, F.M.Karomatov, M.X.Qodirov, M.Murodov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, K.Imomov<sup>7</sup> kabi folklorshunoslar rahbarligida uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar jarayonida bolalar folklorini to'plashga ham alohida yondashilgan.

---

<sup>3</sup>Тайлор Э.Б. Детские игры // Первобытная культура. – М.: Политиздат, 1989. – 573 с.; Диваев А. Игры киргизских детей // Туркестанский сборник. – Ташкент: 1900. – С. 33-36; Боровков А.К. Игры узбекских детей // Сборник научного кружка при Восточном факультете САГУ. Вып. 1. – Ташкент: 1928. – С. 31-42; Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. – М., 1957. – 184 с.; Коган Г.Д. Каракалпакские народные детские игры. – Ташкент: 1969. – 202 с.; 42. Мельников М.Н. Русский детский фольклор. – М.: Просвещение, 1987. – 240 с; Виноградов Г. Детская сатирическая лирика // "Сибирская живая старина". – Вып. III-IV. – Иркутск, 1925. – С.84-92; Народная педагогика. Изд. Восточно-Сибирского Отдела Русского Географического Общества, 1927. – С. 27-31; Потапов Л.П. Алтайский шаманизм. – Л.: Наука, 1990. – С. 264-265.; Померанцева Э.В. Детский фольклор. Русское народное творчество. – М., 1996. – С. 135-142.

<sup>4</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi, 1975. – 102 b.; Safarov O. Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1983. – 88 b.; Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 250 b.; Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. – T.: Fan, 1998. – 96 b.; Qurbonova N. O'zbek bolalar marosim folklori: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994; Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati. – Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – T., 2004. – 24 b.; Safarova N.O. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. – Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – T., 2004. – 23 b.; Ro'zmetov H. Xorazm bolalar folklori: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2005. – 156 b.; Turg'unov Sh.D. Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari: Filol. fan. PhD. – Toshkent, 2019. – 133 b.

<sup>5</sup> Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 250 b.

<sup>6</sup> Mustafoqulov R. Xalq pedagogikasi sarchashmasi. – Termiz: Jayxun, 1995. – 232 b.

<sup>7</sup> Mustafoqulov R. Xalq pedagogikasi sarchashmasi. – Termiz: Jayxun, 1995; Shu muallif. Cho'pon qo'shiqlari. – Qarshi: Nasaf, 2009. – 57 b

Surxon bolalar folklorining kelib chiqishi, mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko‘plab folklorshunos, etnograf, tarixchi, pedagog olimlar qiziqib kelishgan bo‘lsa-da, o‘zbek folklorshunosligida u hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Voha bolalar folklori namunalarini to‘plash, ilmiy tahlil etish ishlari yetarli emas. Bu borada R.Mustafaqulov, T.Turdiyev, H.G‘afurlar<sup>8</sup>to‘plagan materiallar muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo hududida istiqomat qiluvchi aholining bolalar folklorini yaxlit tizim sifatida maxsus filologik ilmiy tadqiq qilish hozirgi zamon o‘zbek folklorshunosligida og‘zaki badiiy ijod an‘analarining yurtimizda saqlanish va rivojlanish holatini aniqlash uchun muhim sanaladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining (2020-2025-yy.) mo‘ljallangan “O‘zbek folklorshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Surxon vohasi bolalar folklorining lokal belgilari asosida o‘ziga xos ijro xususiyatlarini, janriy tarkibini, obrazlar olami va lingvopoetik belgilarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Surxon bolalar folklorini umumo‘zbek folklori kontekstida o‘rganish orqali uning areal muammo ekanini, lokal belgilarini asoslash;

Surxon vohasida bolalarni parvarishlash, suyish, erkalash bilan bog‘liq folklor namunalarining janriy tabiati hamda badiiyatini ochish;

Surxon beshik qo‘shiqlari: allalar va huyyalar, aytim-olqishlar poetikasini aniqlash;

Surxon vohasi bolalar folklorida ma’naviy, harakatli, harakatni so‘z boshqaradigan o‘yinlar, ularda sanama va cheklashmachoqlar, chorlama va tarqalmachochlarning o‘rnini dalillash;

Surxon bolalarining mavsumiy, maishiy hamda hazil (satirik-yumoristik) qo‘shiqlari xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

Surxon bolalar folklorining umumiy va xususiy mavzular ko‘lami, o‘ziga xos lingvopoetik tasvir vositalarini yoritish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Surxondaryo o‘zbek bolalar folklori namunalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi o‘zbek aholining bolalar folklori janrlari va ularning lokal hamda g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, etnofolkloristik, areal hamda lingvistik tadqiq usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

---

<sup>8</sup> O‘zbek xalq qo‘shiqlari. To‘plab, nashrga tayyorlovchi: T.Turdiyev // Chag‘oniyon. – Denov, 2005 . – 19 b.; Qadim Surxon qo‘shiqlari / To‘plab, nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: M.Naimov. – Toshkent: San‘at, 2006. – 19 b

Surxon bolalar folklori hududiy-lokal xususiyatlariga ko'ra areal jihatdan alohida yaxlit badiiy tizim ekani, uning umumo'zbek folklori an'analari bilan obrazlar tizimi va tuzilishiga ko'ra mushtarak hamda janriy tarkibi, badiiy ijro xususiyatiga ko'ra o'ziga xos jihatlari ochilgan;

Surxon vohasida bolalarni parvarishlash, suyish, erkalash jarayonlariga oid folklor namunalarining qo'shiq, lapar kabi janriy tarkibi, allalar va huyyalar, aytim-olqishlar singari beshik qo'shiqlari poetikasi dalillangan;

Surxon bolalar folkloridagi mavsumiy-marosimiy, maishiy, satirik va yumoristik qo'shiqlar yaratilishi hamda ijro qilinishining tarixiylik, zamonaviylik kabi ijtimoiy-hayotiy, hududiylik va turli etnosga oid tarixiy-etnografik asoslari, emotsional ta'sirchanlik xususiyati bilan bog'liq badiiy-estetik qonuniyatlari aniqlangan;

Surxondaryo bolalar folklori janrlarining badiiy til xususiyatlari, obrazlar va motivlar tizimi, poetik qurilishi kabi struktural-semantik xossalari, xalq e'tiqodiy qarashlari bilan bog'liq mifologik, diniy va marosimiy jihatlari, mavzular ko'lami, obrazlar olami, lingvopoetik tasvir vositalari postfolklor holatida o'z an'anaviylikini saqlab qolganligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Surxondaryo bolalar folklorining lokal xususiyatlari, janriy tizimi va badiiyatini tadqiq etish asosida chiqarilgan nazariy xulosalar umumo'zbek bolalar folklori janrlari genezisi o'zaro tutash, janrlar tarkibi va poetikasi boy ekanini isbotlashga xizmat qiladi.

Surxondaryo bolalar folklorining umumo'zbek bolalar folklori tizimida hamda milliy nomoddiy madaniy meros tarkibida tutgan o'rnini va salmog'ini belgilash uchun asos bo'ladi;

o'zbek folklori, shu jumladan, o'zbek bolalar folklori yuzasidan ma'ruzalar o'qish, maxsus kurslar o'tish, oliy ta'lim tizimida "O'zbek folklori" fanidan dars mashg'ulotlari olib borishda o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** chiqarilgan xulosalarning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, etnofolkloristik, areal hamda lingvistik kabi tadqiqot metodlari bilan asoslangani, o'rganilishi lozim bo'lgan ilmiy muammoning aniqligi, Surxondaryo bolalar folklorining lokal xususiyatlarini yoritishda ilmiy-tarixiy va adabiy manbalarga tayanilgani singari jihatlari bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat Surxondaryo bolalar folklorining shakllanish jarayoni va tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti qonuniyatlarini, balki umumo'zbek bolalar folklorining, bolalar ijodkorligi va ijrochiligining har bir hududda o'ziga xos tarzda tarqalgani, saqlanib kelinayotgani, tadrijiy taraqqiyot xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy metodologik manba bo'la oladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Surxondaryo bolalar folklori janrlarining hududiy rang-barangligi va spesifik xususiyatlari haqidagi qarashlar folklorshunoslik bilan bir qatorda pedagogika, maktabgacha ta'lim, tarix, etnologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo'llanmalarining takomillashuviga xizmat qiladi.



**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo bolalar folklorining o‘ziga xos lokal xususiyatlari, tasnifi va badiiyatini yoritish asosida:

Surxon bolalar folklori hududiy-lokal xususiyatlariga ko‘ra areal jihatdan alohida yaxlit badiiy tizim ekani, uning umumo‘zbek folklori an‘analari bilan mushtarak va o‘ziga xos jihatlariga oid ilmiy xulosalardan xulosalaridan FA-F1, G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2017-2021-yy) foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 17/01/220-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada bolalar folklorini tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, areal hamda lingvistik usullarda tadqiq etish metodikasini takomillashtirish zaruriyati asoslangan;

Surxon bolalar folkloridagi mavsumiy-marosimiy, maishiy, satirik va yumoristik qo‘shiqlar yaratilishi hamda ijro qilinishining ijtimoiy-hayotiy, tarixiy-etnografik asoslari, badiiy-estetik qonuniyatlariga oid ma‘lumotlardan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2017-2021-yy) foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 17/01/220-sonli dalolatnomasi). Natijada badiiy-estetik qonuniyatlariga oid ma‘lumotlarga tayanilgan;

Surxondaryo bolalar folklorida postfolklor holatida o‘z an‘anaviyligini saqlab qolgan holda folklor janrlarining struktural-semantik xossalari, xalq e‘tiqodiy qarashlari bilan bog‘liq jihatlari, mavzular ko‘lami, obrazlar olami, lingvopoetik tasvir vositalaridan Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasi Surxondaryo viloyat televideniyasining “Munavvar kun” teleko‘rsatuvlarida, davra suhbatlarida, radioeshittirishlarda tadqiqotchi ishtirok etib, Surxon bolalarining o‘yin, mavsum-marosim folklorini to‘plash, chop etish, ularning poetik xususiyatlarini o‘rganish xususida so‘z yuritib, teletomoshabinlarni bu ulkan ma‘naviy xazinani asrab-avaylashga, qadrlashga da‘vatlantirgan (2022-yil 22-noyabrda 01/01/787-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada dasturlardagi tahlillarning qiziqarli va jonli bo‘lishiga, teletomoshabin hamda radioeshittirish muxlislarining Surxon vohasi bolalar folklorining o‘ziga xos lokal xususiyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarini boyitishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta respublika, 2 ta xorijiy konferensiyalarda qilingan ma‘ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, shundan 2 ta uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumaladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tarkib topgan. Umumiy hajmi 162 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Surxon vohasida bolalarni parvarishlash va suyish qo‘shiqklarining janriy tabiati hamda badiiyati”** deb nomlangan va to'rt fasldan iborat. Ilk fasli **“Surxon bolalar folklorini to‘plash va o‘rganish ehtiyoji”** deb atalgan.

Surxondaryo viloyati tumanlarining joylashishi, iqlim sharoiti, hudud aholisining ijtimoiy mehnat va turmush tarzi, madaniyati bu yerda shakllangan bolalar folklorining ijrosiga alohida ta'sir ko'rsatgan.

Bolalar folklorini o'rganish ishlari dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i dan boshlangan. Unda xalq o'yinlarining 150 dan ortiq turlari tilga olinadi va ularning yigirmatasiga ta'rif berilgan. Surxon vohasidan yozib olingan "Alpomish" dostoni variantida bir necha an'anaviy xalq o'yinlari haqida ham so'z yuritilgan. Ular qizlarning "To'yga-to'yga", "Kapa kuydi", "Yashinmog'ich", "Durram kuydi", "Kavush qoqmoq", "Manglayga chertma" singari o'yinlaridir.<sup>9</sup>

O'zbek bolalar folklorini ilmiy maqsadlarda yozib olish, nashr qilish va o'rganish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlandi.<sup>10</sup> Jumladan, bunda G'ozzi Olim Yunusovning "Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z" maqolasi alohida qimmat kasb etdi.<sup>11</sup> XX asrning 20-30-yillarida M.S.Andereyev, E.M.Peshchereva, A.K.Barovkov, E.K.Barovkova, B.Nalivkin, N.Ostroumov, A.Divayev kabi rus olimlari o'zbek bolalar folklori haqida ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratdilar.<sup>12</sup>

XX asrning 30-yillariga kelib, folklorshunoslar tomonidan o'zbek xalq ijodining boshqa janrlari qatori bolalar folklorini ham o'rganishga qiziqish ortgani kuzatiladi. Folklorshunoslar xalq orasida yurib, ularga tegishli og'zaki badiiy ijod namunalarini yozib olib to'plashga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek bolalar folklorini to'plashni tashkil qilish, uni tizimga solishda Hodi Zarifning alohida o'rni va xizmati bor.<sup>13</sup> Aytaylik, 1939- yili Hodi Zarif tomonidan 95 satr alla yozib olinib, birinchi bor nashr etilgan.<sup>14</sup>

XX asrning 70-yillari ikkinchi yarmidan e'tiboran, bolalar folklori bo'yicha jiddiy ilmiy tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. 1975-yilda G'.Jahongirov bolalar

<sup>9</sup> Alpomish. Aytuvchilar: Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li. Yozib oluvchilar: Oxunjon Sobirov, Qosimxon Muhammedov. Nashrga tayyorlovchilar: To'ra Mirzayev, Jabbor Eshonqul. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi – 2018. – B.321.

<sup>10</sup> Safarov O. Bolalarni erkalovchi xalq qo'shiqlari. – T.: Fan, 1983; Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – T.: Fan, 1985. – B.27.

<sup>11</sup> Yunusov G'.O. Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z // Maorif va o'qituvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – B. 25-26.

<sup>12</sup> Qarang: Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B.29.

<sup>13</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – B.6.

<sup>14</sup> O'zbek folklori. I kitob. – T., 1939. – B.293-294. – B.12.

folklori haqida ilk tadqiqot yaratdi.<sup>15</sup> Muallif o'z izlanishlari asosida "Bolalar ertaklari" nomli risolasini ham chop etdi. Yana u ko'plab bolalar o'yinlari namunalarini yozib olib, "Ming bir bola o'yini" nomli to'plamni nashr ettirdi. Olim o'zbek bolalar folklori janriy tarkibini ilk bor aniqlashga va tasniflashga xarakat qilib, ayrim janrlar poetikasi haqida o'zining nazariy fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi. Shu bois, XX asrning 70-80-yillarini o'zbek bolalar folklorini to'plash va tadqiq etishning yangi bosqichi, deyish mumkin.

G'.Jahongirovning "O'zbek folklori" xrestomatiyasi qisqa, bor-yo'g'i 16 bet bo'lsa-da, bu sohada olib borilgan ishlardan biridir. Biroq, afsuski, u Surxondaryo bolalar folklori haqida juda kam fikr bildirgan.

XX asrning 80-yillarida folklorshunos olim O.Safarov "O'zbek bolalar poetik folklorining janriy tarkibi va badiiyati" mavzusidagi doktorlik tadqiqotini amalga oshirdi. U, asosan, Buxoro, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida, qisman Xorazm, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida to'plagan materiallari asosida o'zbek folklorshunoslik tarixida ilk bor bolalar og'zaki poeziyasining yigirmaga yaqin janr namunalarini o'z ichiga qamrab olgan "Boychechak" to'plamini e'lon qildi.<sup>16</sup> O.Safarov bolalar folklorining ko'plab janrlari mazmun-mohiyatini nazariy asoslab, ularni ilmiy muomalaga kiritdi.

Bolalar folklorini to'plash va ommalashtirishga katta hissa qo'shgan folklorshunos M.Murodovning "Laylak keldi – yoz bo'ldi" to'plamida bolalarning o'yin qo'shiqlari va boshqa marosim qo'shiqlari namunalari keltirib o'tilgan.

H.G'afurov "Xalq o'yinlari, qo'shiqlari va an'alariga bir nazar" nomli kitobida allalar, rabiman kabi bolalar folklori namunalarini bergan.

O'tgan asrning 90-yillarida M.Yoqubbekovaning "O'zbek allalarining janriy tabiati va badiiyati", M.Abdurahmonovning "O'zbek xalq o'yinlari", Sh.Galiyevning "Bolalar o'yin folklorining tasnifi va poetikasi" mavzusidagi dissertatsiya ishlari yaratildi. XXI asrga kelib, S.Avezov, N.Safarova, Sh.Turg'unovlarning ilmiy tadqiqotlarida bolalar o'yin folklori jiddiy tadqiq qilindi.

Surxon vohasi bolalar folklorining o'ziga xos janrlari, ijod va ijro xususiyatlari, tarbiyaviy-estetik mohiyati, poetik belgilari bilan alohida tizim sifatida namoyon bo'ladi. Unga xos janrlar nafaqat xilma-xilligi, balki har bir janrning spesifikasi bilan ajralib turadi. Ayni paytda voha bolalar folklori namunalari uning har bir hududida ham ma'lum lokal xususiyatlar kasb etadi. Surxon vohasining Angor, Sherobod, Boysun, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sho'rchi, Muzrobd, Bandixon, Jarqo'rg'on, Denov tumanlarida bolalar folklori namunalari haliga qadar jonli ijroda saqlanib kelmoqda. Surxondaryo viloyati hududida o'zbek urug'lari bilan bir qatorda tojik, turkman, rus, ukrain, tatar kabi xalq vakillari ham yashaydi. Hudud folklorida ba'zan ular folkloriga xos elementlarning bir-biriga o'tganligi, ta'sir ko'rsatganligi ham kuzatiladi.

Surxon vohasining ko'pgina shahar va qishloqlarida hozirgacha yetmish-sakson yashar, hatto undan katta yoshdagi keksa onaxonlar allalarni, bolalar o'yinlari, terma va qo'shiqlarini darhol, hech ikkilanmay, yanglishmasdan aytib bera

<sup>15</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi, 1975.

<sup>16</sup> Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklori tabiati. – Toshkent: Fan, 2007. – B.41.

olishiga guvoh bo'ldik. Voha bolalar folklori o'rganilar ekan, undagi ayrim namunalar boshqa hududlardagiga o'xshasa-da, ba'zan nomlanishi jihatida farqlanishi kuzatiladi. Masalan, hududda o'g'il bolalarning sevimli o'yinlaridan biri hisoblangan "Para" nomli o'yin respublikamizning aksariyat joylarida "Lanka" deb yuritiladi. Bunda o'g'il bolalar ishtirok etishadi. Dumaloq shakldagi qo'rg'oshin bo'lakchasiga sigir yoki ho'kiz terisidan ozgina qism birlashtiriladi. Hosil bo'lgan soqqani o'g'il bolalar bir oyog'i yerda, bir oyog'ini yerdan ko'targan holda oyoq uchida yoki tovonda tepadi. Tepilgan soqqani yerga tushirib yuborgan bola o'yinda yutqazgan hisoblanadi va yutgan bola tomonidan aytilgan shartni bajaradi. O'yinning qo'shig'i ham bor.

Umuman aytganda, Surxondaryo viloyatida tarqalgan bolalar folklori boshqa viloyatlardagi ayimlar kabi qadimiy va og'izdan-og'izga o'tib kuyulib kelmoqda. Uning boshqa viloyatlarda aytilayotgan folklor namunalariga o'xshash hamda o'ziga xos farqli jihatlari mavjud. Keyingi paytlarda bunday o'xshash jihatlarning ko'payish sabablari, bizningcha, quyidagilardan iborat: birinchidan, o'zaro aloqalarning kuchayotganligi, bordi-keldi, yaqinlashuv, quda-andachilik aloqalari, yoshlarning markaz va boshqa viloyatlardagi oliy o'quv yurtlarida o'qib kelishlari bilan bog'liq; ikkinchidan, folklor namunalarining yozib olinishi kuchayganligi, ularning to'plamlar shaklida tarqalishi, radio va televideniye, matbuot orqali keng targ'ib qilinishi va bu o'xshashliklarni ta'minlovchi, ularga tahlil va qo'shimchalar kiritishga sabab bo'luvchi vositalardir; uchinchidan, viloyatlar bo'yicha turli xil tanlovlar, musobaqalar va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ko'payganligi ham bunga sabab bo'ladigan vositalardan biri hisoblanadi.

Dissetatsiya birinchi bobi ikkinchi fasli "*Surxon beshik qo'shiqlari tizimida allalar*" deb nomlangan. **Boshqa hududlardagi kabi Surxon vohasida ham voqeband (sujetli)** hamda **parokanda** (yaxlit sujet asosida qurilmagan) allalar uchraydi.

Sho'rchilik sakson yashar Tursunjamol momoning yosh onalarga qarata aytgan quyidagi ikki misra she'ri alla ijro qilish shartligi haqida ekani bilan diqqatni tortadi:

Ayol bo'lib aytolmasang allangni,  
Qora yerga ko'mibsan-da, kallangni.<sup>17</sup>

Alla aytolmaslikning o'limga tenglashtirilishi bejiz emas. Bu bilan alla aytish baxt, Olloh in'om etgan oliy ne'mat ekaniga ishora qilinmoqda. Ko'pchilik "alla" so'zi "Olloh" so'zidan olingan deb hisoblaydi. Aslida esa L.Z.Budakov ushbu istilohni "Turk-tatar so'zlarining qiyosiy lug'atida" (1869) chig'atoycha ekanligini ta'kidlar ekan, dastlab u "allala" shaklida bo'lib, boshning orqasi, ya'ni ensani anglatishini qayd etgan. O.Safarov esa alla – yoshini to'ldira boshlagan chaqaloq nutqida "uxlayman" ma'nosini anglatishini, uyqu chaqirmoq, uxlatmoq asosiy vazifasiga aylangan qo'shiq turini ajratuvchi ma'nosi bilan istilohiy mohiyat kasb etganligini ta'kidlaydi.<sup>18</sup>

Allalarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, alla aytuvchi onaning xilma-xil ichki tuyg'ulari, kechinmalari, orzu-umid, shodligu qayg'ulari ifodasini topishi tufayli

---

<sup>17</sup> Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida yashovchi 80 yashar Tursunjamol momodan 2018-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>18</sup> Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiqa, 2010. – B.332.

ayrim folklorshunos olimlar ularni bosqichlab: 1) avaylovchi allalar; 2) maishiy allalar; 3) tarixiy allalar ko‘rinishida o‘rganishni tavsiya qiladilar.<sup>19</sup>

Allalarda bola tasviriga alohida e‘tibor beriladi. Uning yuzi sochlari, rangi, beshigi, beshikdagi bezaklar mehr bilan tasvir etiladi. Masalan:

Ovzi ovgan kemiti, alla,  
Tishi kishmish guruchim, alla-yo, alla.  
Burni ohar no‘xatim, alla-yo,  
Ko‘zi Surxon daryosi, alla-yo.  
Qoshi tovusning pati, alla-yo,  
Qulog‘i beklarning xati, alla-yo.<sup>20</sup>

Bu alla sherobodlik Gulasal momo Mahmadiyor qizidan yozib olingan. Unda bolaning nihoyatda nozikligi real o‘xshatishlar orqali ta’kidlanmoqda. Matnning birinchi misrasini tashkil qilgan “Ovzi ovgan kemiti” hamda to‘rtinchi misradagi “Ko‘zi Surxon daryosi” jumalari ushbu allaning fonetik va leksik jihatdan lokal belgilari sifatida ko‘zga tashlanadi.

Ba’zi allalarda siyrak bo‘lsa-da, hazil, satira va yumor ham uchraydi. Bu xalqimizning hazil-mutoyibaga moyillik ruhidan kelib chiqadi. O‘zbek allachiligida hajv elementlarining mavjudligi haqida folklorshunosligimizda birinchi marta professor X.Razzoqov ma’lumot bergan.<sup>21</sup> Shuningdek, allada uchrovchi bunday hajviy tasvirlar professor O.Safarov e‘tiboridan ham chetda qolmagan<sup>22</sup>. Biz yozib olgan allalarda hajv elementlari ko‘proq bolaga bo‘lgan xush munosabat, uni kuldirishga harakat qilish holati bilan bog‘liq:

Alla deb alashtirayin, alla,  
Qoplamaga solishtirayin, alla.  
Bachamga kelgan tumovni  
Pishaklarga bo‘lishtirayin, alla.

Ko‘rinadiki, bola tumovga yo‘liqqan. Kasallikdan ozor chekayotgani bois injiqlik qilmoqda. Ona esa uni ovutish maqsadida bolasiga kelgan tumovni mushuklarga bo‘lishtirib bermoqchi. Iloji yo‘q bu vaziyat tasviri kulguga sabab bo‘lmoqda.

Ba’zan bola tasvirini berishda uning yig‘loqiligi fosh etiladi. Sho‘rchilik Tursunjamol momodan yozib olingan alla xuddi shu jihati bilan diqqatni tortadi:

Ulum-ulum ulaydi, alla-yo,  
Uldi bergan xudoydi(r), alla-yo.  
Chekkasiga bir solsam, alla-yo,  
Uzun kun jotib jilaydi, alla-yo.<sup>23</sup>

Allada “o‘g‘lim” so‘zi surxonliklar shevasi ta’sirida “ulum”, “o‘g‘ilni” – “uldi”, “chakka” – “chekka”, “yotib” – “jotib”, “yig‘laydi” – “jilaydi” tarzida talaffuz qilingan.

<sup>19</sup> Safarov O. Alla-yo alla. – T.: Ma’naviyat, 1999. – B.32.

<sup>20</sup> Surxondaryo viloyati Sherobodlik Gulasal momo Mahmadiyor qizidan 2019-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>21</sup> Razzoqov X. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor. – Toshkent: Fan, 1965. – B.59-60.

<sup>22</sup> Safarov O. Ko‘rsatilgan asar, 30-b.

<sup>23</sup> Surxondaryo viloyati Sho‘rchilik Tursunjamol momodan 2019-yilda R.Mustafaqulov tomonidan yozib olingan.

Angorlik Ochiloy momo Boboqul qizidan yozib olingan quyidagi allada bolaning kelajakda botir, mard, polvon, norg‘ul, chaqqon uloqchi bo‘lib yetishishi bilan bog‘liq orzu-istak turli sifatlashlar orqali bayon etiladi:

Bolajonim ot chopsin, alla-yo,  
Otiga baxmallar yopsin, alla-yo,  
Qalpog‘ini qayirsin, alla-yo,  
Oti uloq ayirsin, alla-yo.<sup>24</sup>

Surxon vohasida hozirgacha to‘y va sayllarda uloq chopish odati yaxshi saqlanib kelmoqda. Surxoncha to‘ylar uloqsiz, ko‘pkarisiz o‘tmaydi. Shuning uchun vohadan yozib olingan allalarda bolaning kelajakda otli-ulovli, chavandoz bo‘lishi niyat qilinadi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“Surxon bolalar folklorida “huy-ya”lar ijrosi – muhim lokal belgi sifatida**” deb atalgan. Chunki Surxon bolalar folklorida “Huy-ya, huy-ya” erkalama qo‘shiqlari keng tarqalganyu Ular ko‘rinishidan ovutish, erkalash xususiyatiga ega bo‘lsa-da, ammo xuddi onalar allasi kabi chuqur hayotsevarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgandir. Ularda ham kattalarning bolalar kamolini ko‘rish orzu-istagi markaziy o‘rin tutadi. Folklorshunos olim M.Jo‘rayev Surxon vohasiga uyushtirgan ekspeditsiyasi davrida Ostona qishlog‘ida yashovchi Aliqul otadan o‘n olti satr “Huy-ya xuy-ya” erkalama qo‘shig‘ini yozib olgan:

Huyyalar qilay o‘zini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya,  
Huyya qilay qora ko‘zini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya,  
Amudaryoning muzini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya,  
Buvasining qizini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya.<sup>25</sup>

Bu nabirasini uxlatayotgan keksa nuroniy otaxonlar allasidir. Ammo, u “alla” deb emas, “huyya” yoki “huyollo” janriga mansub qo‘shiq sifatida qaraladi. Ularda ham xalq qo‘shiqlari kabi voqeabandlik, hayotiy tasvirlar, ta‘kidli ritmika, ohang va boshqalar saqlanadi. Ular bolani tizzaga olib, tebranib erkalatish qo‘shig‘idir. Uni, asosan, bobolar, ba‘zan otalar kuylashgan. Bolani tizzasiga olib, go‘yo tuyaga mindirib ketayotganday tebranib, ushbu aytimni ijro qilishgan. “Huy-ya, huy-ya” takrori bunday xalq qo‘shiqlarining asosiy mazmunini boyitishga emas, balki qo‘shiqdan zavqlanish tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda “huy-ya” va “tuya” so‘zlarining o‘zaro qofiyadoshligi ham alohida e‘tiborni tortadi:

Bo‘yni uzun ham tuyalar,  
Qumni ko‘rganda uyalar.  
Bolalar tuya quvalar,  
Huy-ya bir, huy-ya, huy-yalar.<sup>26</sup>

Bola beshikda allani, quchoqda “huy-ya, huy-ya”ni eshitib ovunadi va uxlab qoladi. Ushbu qo‘shiqlardan maqsad ham shu, ya‘ni bolani ovutib uxlatishdir.

Otang aytadi “huy-ya”ni,  
Onang aytadi allani,  
Yodga olib Olloh taoloni,

<sup>24</sup> Surxondaryo viloyati Angorlik Ochiloy momo Boboqul qizidan 2018-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>25</sup> Qarang: O‘rayeva D. Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – B.28.

<sup>26</sup> O‘zbekiston xalq baxshisi Shodmon baxshi Xo‘jamberdiyevdan 2020-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

Uxlata yo'lbars bolani.<sup>27</sup>

Bunda bolaning qo'rg'on, qal'a deb ta'riflanishida ham farzandning ota-ona, qarindosh uchun suyanch bo'lishiga oid orzu-niyat ifodasini topgan. Qo'rg'on, qal'aning mustahkamligi himoyaning kuchliligini, tinchlik, omonlikni, bexatarlikni ta'minlaydi. Bolaning qo'rg'on, qal'aga o'xshatilishi orqali uning kelajakda otonasiga quvvat, mador, ularning farovonligini ta'minlovchi farzand bo'lishi niyat qilinganini bildiradi.

Yigitning zo'rliqi, chaqqonligi, abjirligi ommalashgan xalq o'yinlari kurash (olish, polvonlik), uloq (ko'pkari, chavandozlik)da yaxshi sinaladi. Ota farzandining, avvalo, o'sha yo'nalishlarda el ko'ziga ko'rinishiga tilak bildiradi.

Bilakni kuchga to'ldirgin,  
Zo'rliklaringni bildirgin.  
Ob beray senga uchqur ot,  
Yo'lbarsim, bo'lg'in chavandoz!  
Huy-ya bir huy-ya, huy-yalar,  
Huy-ya bir huy-ya, huy-yalar.

Uzoq umr tilash xalqimizning asosiy duolaridandir, eng yaxshi tilak yuz yosh ko'rish tilagidir. Bu esa olqish, orzu-niyatga to'lib-toshgan "huy-ya, huy-ya"larda alohida bir orziqish bilan tilga olinadi, Masalan:

Bobong aytgan so'zga kirgin, huy-ya, huy-ya,  
Alplar bosgan izga kirgin, huy-ya, huy-ya,  
Martabangni olloh bersin, qo'chqorim,  
Tilagim shu yuzga kirgin, huy-ya, huy-ya,

Ba'zan "huy-ya"larda zamonaviy talablar ham o'rtaga tashlanadi. Farzandni ziyoli qilib yetishtirish, oliy o'quv yurtlarida o'qitib, bilimli va gapga chechan bo'lishi orzu qilinadi. Masalan:

Baxshi bobolaringday,  
Gapni gapga to'qigin.  
Bir ziyoli farzand bo'lib,  
Oliygo'hdagi o'qigin.  
Huy-ya, huy-ya, huy-ya, ha.<sup>28</sup>

"Huy-ya"larda aytuvchining yurak dardlari, ezgu niyatlari, hayotga munosabatlari ifodasi ajralib turadi. Bu qo'shiqlarda faqat bolaning taqdiri, kelajagi bilan bog'liq orzu-havaslargina emas, ba'zan aytuvchining o'z armonlari ham tilga olinadi. Ba'zan "huy-ya"larda go'dakka xos xususiyatlarga e'tibor beriladi.

"Huy-ya, huy-ya" qo'shiqlari o'zbek she'riyatidagi barmoq vaznida yaratilgan bo'lib, hijo jihatidan turli-tumandir. "Huy-ya huy-ya" so'zining takrorlanishi ham turli xil shakldadir. Masalan, Qora baxshi Umarovdan yozib olingan matnda "huy-ya bir huy-ya, huy-yalar" shakli band oxirida takrorlansa, O'zbekiston xalq baxshisi Chori baxshi Umarov aytgan matnda band boshida "huy-ya, huy-ya, huy qashqa", "huy-ya, huy-ya, huy-yalar", "huy-ya, huy-ya, huy dona", "huy-ya, huy-ya kapalak", "huy-ya, huy-ya quyadi", "huy-ya, huy-ya, huy bo'lsin", huy-ya huy-ya huy chog'im", "huy-ya, huy-ya quchog'i" kabi tartibda kelib, keyingi misralar

<sup>27</sup> O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar baxshi Poyonovdan 2019-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>28</sup> Surxondaryo viloyati Bandixon tumanida yashovchi Muhammad baxshi Eshboyevdan 2020-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

oxirida keladigan “moshga”, “uyalar”, “sedana”, “govpalak”, “so‘yadi”, “kuy bo‘lsin”, “pichog‘im”, “po‘chog‘i” so‘zlari bilan qofiya hosil qiladi. O‘zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov aytgan “huy-ya”larda bu takror “huy-ya, bolam, huy-ya-ya” shaklida undalma bilan qo‘shilib keladi. “Huy-ya, ulim, huy-ya-yo”, shirin tilim, “huy-ya-yo”, “huy-ya, bo‘tam, huy-ya-yo” kabi. O‘zbekiston xalq baxshisi Shodmon Xo‘jamberdiyev aytgan “huy-ya” termalarida ham undalmalar uchraydi va oxirgi “yo” yuklamasi sheva va og‘zaki nutqqa xoslangan tarzda “-yov” shaklini oladi. Safar baxshi Saydilovdan yozib olingan matnlarda esa takrorlanuvchi bu unsur “huy-ya, huy-ya, huy-ya, ha” shaklida kelgani kuzatiladi. Muhammad baxshi Eshboyevdan yozib olingan “huy-ya” qo‘shig‘ida bu takror “huy-ya, huy” shaklida bo‘lib, to‘rtlikning 1-, 2-, 4- qofiyali misralari oxirida takrorlangani ko‘zga tashlanadi.

Birinchi bobning to‘rtinchi fasli **“Surxon bolalar folklorida erkalama, ovutmachiq va aytim-olqishlar”** deb nomlangan. Bolalar folklorining alladan keyin bola kamolotida ishtirok etadigan yana bir shakli **“ovutmachiq”**lardir. Surxondaryo viloyati bolalar folklorida erkalama va ovutmachiq muhim o‘rin tutadi. Ular kattalar tomonidan ijro qilinsa-da, ammo ularda bolalik olamining zavq-shavqi, nazokati va latofati tarannum etiladi. O.Safarov erkalama va ovutmachiqni suyish qo‘shiqlarining bir-biridan farq qiluvchi janrlari deb belgilaydi.<sup>29</sup> Uning kuzatishicha, ovutmachiq kichkintoylar g‘ashlanganda, baqirib va chinqirib yig‘laganda, betoqatligi oshganda aytilsa, **erkalamalar** kayfiyatning ko‘tarinki paytida ijro qilinadi. Masalan, Surxondaryo bolalar folklori bo‘yicha kuzatishlarimizda yosh onaning o‘z bolasini quyidagicha suyib erkalatishini kuzatdik va yozib oldik:

Oynanayin ashimnan,  
Ko‘zing minan qoshingdan.  
Iyak minan qoshingdan.  
Dikirlab chopgin kiyikdek.<sup>30</sup>

Ko‘rinadiki, ona o‘z bolasini mehr bilan suyar ekan, uning yoqimlilikini alohida zavq-shavq bilan ko‘rsatadi, sog‘lom ulg‘ayishini orzu qiladi. Ba‘zi erkalamalarda bolaning portreti chiziladi, harakat xususiyatlariga, odatlariga, ko‘rinishlariga, rang-tusiga e‘tibor beriladi.

G‘.Jahongirov ovutmachiq haqida to‘xtalar ekan, onaning bola bilan bo‘lgan munosabatlarida juda qadim zamonlardagi odatlarning izlarini kuzatish mumkinligiga e‘tiborini qaratgan.<sup>31</sup> Ovutmachiqda o‘yin usuli ham keng qo‘llaniladi. Masalan, barmoqlar vositasida o‘yin qilib aytiladigan ovutmachiqda ular harakatdagi va har xil xarakterdagi qo‘shiqlar shaklida namoyon bo‘ladi. Bunday aytimlarni O.Safarov “havzak-havzaklar” deb ataydi. Barmoqlar bilan bog‘liq o‘yin-ovunchiq sherobodlik Oynabod momo Bekmurodova tilidan yozib olingan variantda quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

Bilar oq,  
Bilmas bog‘.

<sup>29</sup> Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – B.291.

<sup>30</sup> Surxondaryo viloyati Boysun tumanida Boshrobot mahallasida istiqomat qiluvchi Mamatali Ko‘chkinov 2019-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>31</sup> Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – B.20-25.



O'rta terak,  
Shildir shumak.  
Kichginagina bobolak.<sup>32</sup>

Barmoqlar bu o'yin ovutmachoda asosiy obrazlar sifatida qatnashadi. Bu kabi sanashlar, barmoq bukishlar hayotiy tizim, hamkorlik, birlik, mehnat, birgalikda ish bajarish bo'yicha ma'lumot beradi. "Kichkinajon" ovutmachod qo'shig'i onalarning go'daklariga nisbatan aytiladigan qadimiy suymali qo'shiqlaridandir.

O'zbek folklorshunosligida bolalar hayotidagi muhim o'zgarishlarni qayd etuvchi marosimiy aytimlar "**aytim-olqish**" atamasi bilan yuritiladi.<sup>33</sup> Aytim-olqishlar Surxondaryo viloyati aholisi tomonidan bolalar uchun bajariladigan rasm-rusum va marosimlarda ham ko'p aytiladi. Masalan, bolaga munosib ot qo'yilgandan so'ng qo'shiqda shunday maqtaladi:

Senga qo'ydim yaxshi ot,  
Yaxshi niyatdir murod.  
Jurtu elga suyansin,  
Qo'sh arslon jurakim.

Chaqoloqning o'sishidagi har bir hodisa kattalar tomonidan kuzatib boriladi. Bolani beshikka solish, uni cho'miltirish, tanglayini ko'tarish, tish chiqishi, so'zlay boshlashi, (tilining chiqishi), o'tirishga o'rganishi, emaklashi, yura boshlashi kabilar oilada alohida nishonlanadi.

Bolalar folklorida qiziqmachoqlar ham keng tarqalgan va ular janr sifatida o'z o'rniga ega. O'zbek folklorshunosligida qiziqmachoqlar haqida ma'lum nazariy tahlillar mavjud.<sup>34</sup> Allalar, ovutmachodlar funksiyasi tugallana boshlagach, ot-onalar va bolalar o'ratasidagi ma'naviy aloqada qiziqmachoqlar yetakchi o'ringa chiqadi. Qiziqmachoqlarni ikki guruhga ajratib tahlil qilish mumkin: 1.Onalar, umuman, kattalar tomonidan aytiluvchi qiziqmachoqlar. 2.Bolalar o'yinida aytiladigan qiziqmachoqlar. Ayrim qiziqmachoqlar aytishuv-dialog shaklida bo'ladi.

Qiziqmachoqlar bolalarda turmushning turli sohalari, olam manzarasi, koinot, kishilar xarakteri, hayvon va o'simliklar dunyosi to'g'risida tasavvur qo'zg'aydi, ular bilan tanishtiradi va ularga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Masalan, quyidagi o'yin-qiziqmachod tuya mavzusiga bog'langan:

Bolakay biyang qani?  
Bobong bergan tuyang qani?  
Bobong bergan tuyalaring  
Bobotog'da o'tlab turibdi.

Qiziqmachoqlarda tasodifiy topilmalar ko'p bo'ladi. Ularda ma'lum mavzuda gap borayotib, birdaniga tasodifiy ravishda boshqa mavzuga, ko'proq kulguli holatlarga o'tib ketiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Surxon vohasi bolalar o'yinlari kompozitsiyasida qo'shiqlarning o'rni**" deb nomlangan. U uch fasldan tashkil

<sup>32</sup> Surxondaryo sherobodlik Oynabod momo Bekmurodovadan 2019-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>33</sup> Safarov O. Aytim-olqishlar / O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B. 44-55.

<sup>34</sup> Adizova N. Qiziqmachoqlarning janriy tabiati va badiiyati: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2020.

topgan. Ilk fasli *“Harakatli va harakatni so‘z yoki predmet boshqaradigan o‘yinlar folklori”* deb atalgan.

Bolalar o‘yinlarining tabiati, xarakteri, poetikasi, ishtirokchilarining xatti-harakatlari har bir xalqning mehnat va milliy an‘analari, turmush kechirish sharoiti, geografik yashash o‘rni, iqtisodiy va siyosiy talablari asosida shakllanadi. Sinchiklab qaralsa, bola o‘yinida kattalarning xulqi, odatlari, mehnat qilish usullari, turmushda ko‘zda tutgan maqsadlarining xarakterli belgilari ko‘rinib turadi. Cho‘pon bolasining o‘ynlari ma‘lum ma‘noda cho‘ponning kasbini eslatadi, desak xato bo‘lmaydi. Qizlar esa aksariyat o‘yinlarda onalarining uydagi mashg‘ulotlarini takrorlaydilar.

Surxondaryo hududida ham qadimdan bolalar o‘ynlari keng ommalashgan va uning ko‘pgina ko‘rinishlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ularning aksariyati tosh yordamida o‘ynaladi. Masalan, “To‘qqiz tosh”,<sup>35</sup> “Besh tosh”,<sup>36</sup> “To‘p tosh” o‘yinlarida harakatni predmet (masalan, tosh) boshqaradi.

O‘yin g‘olibi va guruhning g‘olibligi otilgan toshlar sonidan kelib chiqadigan “To‘p tosh” deb ataluvchi o‘yinda shunday qo‘shiq kuylanishini oltinsoylik 66 yoshli Jo‘ragul momo Tog‘ayeva eslab aytib berdi:

To‘p-tosh, tez bo‘l,  
Qo‘limga o‘zing tez kel.  
To‘p-tosh, to‘p-to‘p,  
Tez bo‘laqol, tez kel.<sup>37</sup>

Surxondaryo bolalar o‘yinlaridan biri “Ko‘chmak” o‘yinidir. “Ko‘chmak”, asosan, cho‘pon bolalar o‘yini hisoblanib, tog‘ va dasht, adirlarda o‘ynalgan. Bu boshqotirma o‘yinlar turkumiga kirib, ishtirokchilardan puxta hisob-kitob bilan harakat qilishni talab etadi. Bunda piyoladek hajmda beshtadan chuqurcha, ya‘ni “qo‘ra” yasab olinadi. Har bir chuqurchaga besh donadan toshcha, ya‘ni “qo‘y”lar yoki “bo‘ta”lar tashlab chiqiladi.

“Andig‘imi sandig‘i?” o‘yini<sup>38</sup> loy vositasida tashkil qilinadi. Loy uning predmetidir. “Merganlik” o‘yini<sup>39</sup> konfet qog‘ozlari bilan tashkil qilinishi tufayli harakatni predmet boshqaradigan o‘yinlar sirasiga kiritiladi.

O‘zbek xalq o‘yinlarining ko‘pchilik qismida katta-kichik, qiz-o‘g‘il ishtirokchilarning yoshi va jinsi farqlanmaydi. Ana shunday o‘yinlardan biri yong‘oq bilan tashkil qilinadigan “Chor po‘choq” o‘yinidir.

Surxondaryo, Qashqadaryo tomonlarda “Oq suyak” o‘yini erta ko‘klamda va qorong‘u paytda o‘ynaladi. Bunda bolalar saylagan jo‘raboshi so‘ngakni uzoqqa otadi, boshqa bolalar uni izlaydi. Kim suyakni birinchi topsa, g‘olib chiqadi. Bolalar “Oq suyak” o‘yinida quyidagicha qo‘shiqni aytishadi:

Kechalari otdim oq suyak,

<sup>35</sup> Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani Arpa poya mahallasida yashovchi 74 yoshli Uljamol momodan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>36</sup> Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani Arpapoya mahallasida yashovchi 75 yoshli Poyonov Mamaziyo bobodan 2020-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>37</sup> Surxondaryo viloyati oltinsoylik 66 yoshli Jo‘ragul momo Tog‘ayeva 2020-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>38</sup> Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanidan 70 yoshli Rajabov Ziyobobodan 2019-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>39</sup> Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Gulzor mahallasida yashovchi 85 yoshli Rahmonberdi bobodan 2019-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

Qorong‘uda kesildi tuyoq,  
Ko‘zlar bo‘ldi oq bo‘yoq,  
Qidirdim u yoq-bu yoq.  
Bu o‘yinlarim o‘saldi,  
Qorog‘uda ko‘ring kasaldi.<sup>40</sup>

Bolalarning oshiq o‘yinlarida aytiladigan qo‘shiqlar hazil-mutoyibaga boy, orzu-havaslariga to‘la, qiziqish, zavq-shavqni oshiruvchi qochirimlari beqiyosdir. Masalan, ulardan birida o‘yinning o‘ziga xos xususiyatlari, kishiga huzur beruvchi xususiyati maqtalgan:

Soqqaginamni boqayin,  
Soqqam ko‘p oshiq ayirdi.  
Soqqaginam soqqalaring sarasi,  
Mening soqqam hammasining to‘rasi.  
Soqqaginam yutib oldi hammasini,  
Bitarmi yuttirganning yurak yarasi.<sup>41</sup>

Oshiqning “o‘tirdi” yoki “uyurma” turida ham o‘ziga xos talablar bor. Unda kimning oshig‘i olchi, “o‘mma” tursa, qolgan barcha chikka oshiqlarini “yeydi”. Bu haqda quyidagicha qo‘shiq ham yaratilgan:

O‘mma turg‘in, oshig‘im,  
O‘marib bergin, oshig‘im.  
O‘marib bersang, oshig‘im,  
Tilla bo‘lur qoshig‘im.<sup>42</sup>

Bolalarning oshiq o‘yinida “hur” shakli ham bor. Bunda ko‘p oshiq topgan bola tilidan qiziqarli qo‘shiqlar aytiladi. Mana ulardan biri:

Oshiq o‘ltirgan qalamchi,  
Ha, alamidan jilamchi.  
Elanmasang, oshiq qayda,  
Keldilar oshiq tilamchi.

Oshiq o‘yining turi ko‘p. Shulardan biri “podsho-vazir” o‘yini.

Oshiqning bo‘lur podsho, vaziri,  
Har elning bo‘lur alp zo‘ri.  
Yoshlikda o‘ynaganlarning,  
Bo‘lur shunday huzuri.<sup>43</sup>

Bunda bolalar oshiqning tushishiga qarab “mansab” oladi. Masalan, oshig‘i olchi turgan “podsho”lik, taha turganda “vazir”lik, pukka tursa “so‘fi”lik, chikka turganda “o‘g‘ri”lik “mansabi”ni oladi.

“Boboltaka” guruhli o‘yinlar turkumiga kiradi. Unda “chibich” vazifasini bajaruvchi davra ichida qochib yuradi. “Taka” esa uni bir oyoqda hakkanglab, bir oyog‘ini ko‘tarib quvadi va shunday kuylaydi:

<sup>40</sup> Surxondaryo viloyati Bandixon tumani Bektepa mahallasida istiqomat qiluvchi Hakimboy Dalliyevdan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>41</sup> Surxondaryo viloyati Termiz shahar Namuna mahallasida istiqomat qiluvchi R.Mustafaqulovdan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>42</sup> Surxondaryo viloyati Termiz shahar Namuna mahallasida istiqomat qiluvchi R.Mustafaqulovdan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>43</sup> Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida yashovchi Xolmurod Mustafaqulovdan 2020-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

Quvlayman bir oyoq bilan,  
Urrib yiqitay tayoq bilan.  
Qo'yib qochsang agarda,  
O'ynamasman senday sayoq bilan.<sup>44</sup>

Xullas, Surxon vohasi bolalarining o'yin folklorida harakatli va harakatni so'z yoki predmet boshqaradigan o'yinlari ancha keng tarqalgan. Ular nomlanishi, mavzular yo'nalishi, tashkil qilinishi, ishtirokchilari tarkibi jihatida o'ziga xosliklarga ega.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "**O'yinni boshlovchi va yakunlovchi qo'shiqlar**" deb nomlangan. O'zbek yigit-qizlari o'rtasida hozir ham sanamalarni bilmaydigan, yoshligida quvlashmashoq, bekinmashoq va boshqa o'yinlarni o'ynamaganlari deyarli yo'q. Bolalar o'yin davomida kichik guruhlariga bo'linib o'ynaganlarida xolislikni ta'minlash maqsadida turli sanama va cheklashmashoqlardan foydalanib kelishgan. Ular bolalarning badiiy ijodkorligini o'zida namoyon etadi. Qolaversa, ular orqali kichik yoshdagi bolalar sanashni, qofiyalar, istioralar, sifatlashlarni yodida saqlab qoladi.

Surxon bolalari orasida so'qma sanamalar keng tarqalgan. Ularning "Aqina-buqina kakona" va "Aqana-buqana kakona", "Allan-ballan" kabi ma'no anglatmaydigan so'z takrorlari bilan boshlanadigan namunalarini Iroda Namozovadan yozib oldik. U bunday sanamalar quvlashmashoq o'yinini tashkil qilish paytida bolalarni chalg'itishga o'ng'ayligi sabab aytilishini ma'lum qildi.

S.Avezov sanamalarni butun o'yinni boshqarib, harakatlantirib turish vazifasidan kelib chiqib, "Muqaddima sanamalar" va "O'yin sanamalar" kabi turlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi<sup>45</sup>. Uning "Muqaddima sanamalar"dan farqlab tahlil etgan "O'yin sanamalar"i to'laligicha biz taklif etgan tasnifda "Maxsus (xoslangan) sanamalar" sirasiga kiradi. Negaki, o'yinni boshidan oxiriga qadar boshqarib borish xususiyatiga ega bo'lgan bunday sanamalarni o'yindan ajratish mumkin emas. Bunday sanamalar "Abo'lakam-dubo'lakam", "Darvoza", "Tuya", "Kim topadi?", "O'g'ilchami yoki qizcha?" kabi o'nlab o'yinlarda qo'llaniladi<sup>46</sup>.

Quvlashmashoqlarda sanamalar aytilayotganda, o'yinda ishtirok etayotgan bolalar hushyor turmog'i, so'nggi so'z yoki jumla o'ziga to'g'ri kelmasa, o'yinda navbatchi emasligini anglab, zudlik bilan qochib qolmog'i zarurdir. Qo'shiq oxiridagi so'z qaysi bolaga to'g'ri kelsa, o'sha bola safdan chiqib turishi shart hisoblanadi. Ko'pincha bolalarni chalg'itish uchun ular dialog asosida ijro qilingan.

Bizningcha, ayrim sanamalarda o'zbek motam marosimiga oid tushunchalarning ham ta'siri bor. Masalan, Surxondaryoda marhumning "yettisi" dafn marosimidan yetti kun o'tgach, uning ruhi yer yuzidan arshi a'loga (yettinchi osmonga) ko'chib o'tadi deb qaralib, tantanali o'tkaziladigan katta tadbir. Boshqa xotira marosimlari (qirq, yil) kabilar unga nisbatan sal kichikroq doirada tashkil qilinadi. Agar shu jihatdan qaralsa, "Yetti, ketti" ifodasida xalqning shu kabi ishonch-e'tiqodlari bilan bog'liq tushunchalar zuhur topganday go'yo. Buni

<sup>44</sup> Surxondaryo viloyati Boysun tumanida yashovchi Sattor bobo Bobomurodovdan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>45</sup> Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 71-84.

<sup>46</sup> Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 83.

quyidagi sanama misolida ham kuzatish mumkin, chunki unda o'lgan boboga "yetti berish" haqidagi fikrlar yuqoridagi mulohazalarimizga dalil bo'la oladi:

*Bo'kschi bobom o'libdi,  
Xudo rahm qilibdi,  
Yettisini beraylik,  
... Yetti,  
Ketti.*<sup>47</sup>

Bunda yettinchi bola qolganlarni quvlashga tushadi. Ushbu o'yinning ahamiyati shundaki, u orqali bolalar chaqqonlik va epchillik, hushyorlik va sezgirlik kabi xususiyatlarga ega bo'lishadi. Eng muhimi, o'yinning har yangidan boshlanishida bolalar har xil ohangda folklor qo'shiqlarini kuylaydilar. Shu orqali folklor qo'shiqlariga qiziqish va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Ma'lumki, odatda, insonlar sanalmaydi, "o'ladi" deb irim qilinadi. Shuning uchun sanamalarda inson so'zi atay tushirib qoldirilib, uning o'rniga raqamlar yoki narsalar sanaladi.

Surxonda bolalar quvlashmchoq o'ynayotganda tutqizib qo'ygan bolaning orqasiga, ko'pincha yelka qismiga sekingina ikki musht tushirishgan. Shuning uchun sanamaning so'nggi misrasida "Devichkani ushlanglar, ortiga ikki mushtlanglar" deb, mazkur shart ham yodga solinadi.

Kuzatishimizcha, sanamalar ko'p va xilma-xil bo'lganligi bois bolalar har bir o'yin mazmuniga moslab sanama tanlashadi. Masalan, ular quyon yoki ot obrazi ishtirok etgan o'yinni o'ynashda quyidagi sanamadan foydalanishlari kuzatildi.

Chek tashlashning og'zaki yo'li, asosan, bolalarni o'yin boshlanishidan oldin ikki to'daga bo'lib olish maqsadida qo'llaniladi. Avval ikkita bola onaboshi (bek) bo'lib, bir joyda turishadi va bolalarning so'zlarini tinglab, ulardan bittasini tanlab oladilar. Bolalar esa xayollariga qanday predmet kelsa, o'zlarini shuning nomi bilan aytaveradilar.

Bolalar chorlama qo'shiqlari orqali yig'ilib olganlaridan keyin qanday o'yin o'ynashlari haqida o'zaro kelishib olishgan. Kuzatishimizcha, chorlamalar ikki xil bo'ladi: 1. O'yinga chorlov qo'shiqlari. 2. O'yinni tanlash uchun chorlamalar.

Bolalar sigir, qo'ylarni boqishga chiqqanda, odatda, "Qadama tayoq" nomli o'yinni o'ynaydi. Bu o'yin Boysun tumanidan yozib olingan chorvachilik bilan bog'liq bolalar o'yinlaridan biridir. Boysun tumanining ba'zi qishloqlarida u "qalama tayoq" ham deyiladi. Bu o'yin, asosan, Boysun va Sherobod tumanida saqlanib qolgan. Qo'shiqda o'yinning shart va qoidalariga alohida izoh berib o'tiladi. O'yin yakunida g'olib bola nomi keltirilgan satrlar ijrosiga o'rin beriladi.<sup>48</sup>

O'yinga chorlama yangragach, unga kelib qo'shilmagan bolalar ustidan kulishgan. Ammo o'sha bolaning o'yinga chiqmasligiga turli sabablar bo'lishi mumkin. Birida o'zi xohlamasa. Birida onasi yo otasi ruxsat bermasligi ayonlashadi. Shunga qarab ham aytilgan hazil chorlamalar mavjud.

Bolalarning o'yin tugagandan keyin aytiladigan qiziqmchoq she'ri ham quvnoq kayfiyat hosil qiladi.

<sup>47</sup> Surxondaryo viloyati Denov tumani Yangi qishloqda yashovchi Haydarova Qirmizi momodan 2019-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>48</sup> Surxondaryo viloyati Boysun tumani Ko'chkak mahallasida yashovchi Norov Bahodir bobodan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Surxon bolalarining so‘z o‘yinlari*” deb nomlangan. Bu faslda Surxon bolalarining “guldur-gup”, “guldur-gup-sanama”, “tez aytish”, “chandish” singari so‘z o‘yinlari tahlilga tortildi.

So‘z yoki ma’naviy o‘yinlar bolalarda fikrlash, topqirlik, zukkolik kabi qobiliyatlarni shakllantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Bu o‘yin turlari bolalarning aqliy salohiyati, hozirjavoblik, zukkolik sifatlarini o‘stirishi tufayli aqliy o‘yinlar ham deyiladi.

So‘z o‘yinlarining shakllanishida, avvalo, bolalarning badiiy ijodkorligi, so‘z topqirliigi namoyon bo‘ladi. Bunday o‘yin turlariga chandishlar, guldur-guplar va topishmoq aytish, tez aytish, qo‘rqinchli hikoya aytish singarilarni kiritish mumkin.

Surxon bolalari quyidagi kabi she’riy topishmoqlardan o‘rni kelganda “sanama-topishmoq” sifatida foydalanishi ham kuzatildi. Ular dialogga asoslangan, ammo unda “topishmog‘im bor” deb emas, “savolim bor” deyiladi:

– Bir ikki, o‘n ikki,  
“O‘n ikki” deb kim aytdi?  
– “O‘n ikki” deb men aytdim,  
Shartta ortimga qaytdim.  
– Yo‘q qaytmagin, shoshmay tur,  
Savolim bor, javob ber!?  
Doim kulib turadi,  
Tafti tanga yoqadi,  
Berar harorat, yog‘du,  
Qani ayt-chi nima u?<sup>49</sup>

Keltirilgan bu topishmoq quyosh haqidadir, lekin ba’zi tog‘li tumanlarda yashovchi bolalar uning osmon va yulduzlar haqidagi turidan ham foydalanishadi.

Umuman aytganda, bu tipdagi topishmoqlar, odatda, “Bir ikki, o‘n ikki” deb aytgan bolani izlash bilan boshlanadi. Nihoyat, “O‘n ikki” deb aytgan bola topiladi-yu, ammo u o‘zini shartta ortga olmoqchi bo‘ladi. Shunda sanamani boshlagan bola unga savoli borligi va javob berishini so‘rab, ortga qaytmaslikka va shoshmaslikka, undaydi. Shuning uchun ular “sanama-topishmoq” deyiladi. Xullas, mana shu ma’nodagi olti misra bunday sanama-topishmoqlarning birinchi qismini tashkil qilsa, keyingi qismini topishmoq tashkil qiladi.

E’tiborli tomoni shundaki, Surxon vohasida o‘tkazgan folklor to‘plashga oid ekspeditsiyamiz chog‘ida boshqa hududlarda uchramaydigan bir hodisaga duch keldik. Bolalar bir so‘zni ikkiga bo‘lib aytish orqali ikkita ma’noga ishora qilar ekan. Masalan,

Qalampir achchiq,  
Yuragim san+chiq.<sup>50</sup>

Bu o‘rinda “yuragim sanchiq” ifodasini ikki ma’noda tushunish mumkin. Birinchisida, “yuragim” metonimiya sifatida undalmani hosil qilib, “yuragimga yaqin insonim” ma’nosini o‘zida tejamkorlik tamoyili asosida ifodalab “Yuragim, san chiq” degan mazmunni bildirsan, ikkinchisida “yuragim og‘riqli, sanchib turadi”

<sup>49</sup> Surxondaryo viloyati Termiz shahar Namuna mahallasi yashovchi R.Mustafaqulovda 2020-yildan I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

<sup>50</sup> Surxondaryo viloyati Sherobod tumani “Katta xayot” mahallasida yashovchi Tohir Mamatqulovdan 2020-yilda I.Shoymardonov tomonidan yozib olingan.

ma'nosini anglatadi. Bu matndan sanama sifatida foydalanilsa, "sanchiq so'zi qismlarga bo'lib "san chiq" tarzida talaffuz qilinadi va shu mazmunda qabul qilinadi. Yoki yana:

Kechqurun sichqonlar,  
Dupur-dupur qiladi,  
Er talab malika  
Sochini taraydi.<sup>51</sup>

Bu qo'shiqda "er talab malika" birikmasida "ertalab" so'zi erga tegishni xohlayotgan malika tushunchasida sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajarib kelsa, ikkinchi o'rinda malikaning ertalab barvaqt turib sochini tarashi ma'nosida payt ravishi bo'lib kelishi anglashiladi. Shu so'z o'yini asosida ersiragan malika (salbiy), orasta malika (ijobiy) obrazlari gavdalantiriladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Surxon bolalarining mavsumiy-maishiy hamda hazil qo'shiqlari**" deb yuritilgan. Uning ilk fasli "**Surxon bolalarining mavsumiy qo'shiqlari**" deb atalgan. Bolalar yoshligidanoq o'yinlarga ko'nikma hosil qiladilar va bundan o'zlariga estetik zavq oladilar, uning yordamida aqliy va jismoniy kamolotga erisha boradilar. Shu jarayonda ularning tevarak-atrofga, tabiat hodisalariga, undagi mavsumiy o'zgarishlarga munosabati ham ko'rina boradi. Kattalar esa bolalarning tabiatga munosabatlarini shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalarning o'z taqvim va uni ifoda etuvchi mavsum marosim qo'shiqlari yuzaga kelgan. Bahor, yoz, kuz mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozasiga ko'ra, kattalar repertuaridagi mavqeini yo'qota borib, yo tamomila so'nib ketgan, yoki o'zgarishlarga uchrab, bolalar repertuarida saqlanib qolgan. "Boychechak", "Yo ramazon" va hayitliklar-bayram qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Folklorshunoslar V.M.Jirmunskiy, H.Zaripov, M.Alaviya, G'.Jahongirov, O.Safarov, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, Sh.Turg'unovlar tomonidan ba'zi hududlarda saqlanib qolgan bolalar mavsumiy qo'shiqlari yozib olinib, avloddan-avlodga o'tib kelishiga hissa qo'shilgan.

Turli fasllarga aloqador, suv yoki yomg'ir, qor yog'ishini tilash, kamalakni alqash jarayonlari bolalar qo'shiqlarida ham aks ettirilgan. Gullar, o'simliklar, hayvonlar, hashorotlar, qushlarga murojaatdan yoki ularni tasvirlovchi yo tavsiflovchi bolalar qo'shiqlari ham xilma-xildir. Ular juda ko'p variantlarda tarqalgan.

Xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi bolalar qo'shiqlari ko'pincha yil fasllariga, qush va hayvonlarga, tabiatdagi o'zgarishlarga bag'ishlangan bo'lib, mazkur narsalar va vatan manzaralariga nisbatan munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida baholanadi. Bu jihatdan bolalarning qaldirg'och, turna, laylak uchib kelishi munosabati bilan yaratilgan qo'shiqlari e'tiborni tortadi. Yalinchoqlar bolalarning tabiat bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lishlariga yo'l ochgan bo'lsa, hukmlagichlar hayvonot olami bilan munosabatlarini ta'minlagan, shu asosda bolalarda tabiatga, hayotga mehr-muhabbatni shakllantiruvchi estetik-axloqiy munosabat tarbiyalangan.

---

<sup>51</sup> Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Oq turba mahallasida yashovchi Abray bobo Bobonazarovdan 2017-yilda I.Shoyardonov tomonidan yozib olingan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*Surxon bolalarining maishiy va hazil qo‘shiqlari*” deb nomlangan.

Bolalar ilk qo‘shig‘i – qiqillamalar, to‘rtliklarda bolalar dunyoqarashining shakllanish jarayoni kuzatiladi. Xususan, to‘rtliklarda bolalarining o‘tmishdagi va bugungi kundagi, umuman, turli davrlardagi hayot manzaralari, hayotga, turmushga, tabiatga munosabatlari aks etib turadi. Ularning ba’zisi o‘tmishda yaratilgan bo‘lib, kambag‘al bolaning iqtisodiy yetishmovchiliklar sababli o‘kinish ohanglarini o‘zida ifoda etsa, ba’zisi tinch va osuda, to‘kin turmush kechirish baxtidan zavqlanish kayfiyatini ifodalashga qaratilgan.

O‘zbek xalqi ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan bolalarga meros qoladigan qo‘shiqlarning salmoqli turi mehnat qo‘shiqlaridir. Xususan, ularning aksariyati qadimdan bobo kasbi hisoblangan dehqonchilik hamda chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlardir. Qo‘shchi va ho‘p qo‘shiqlari ko‘pincha hajman kichik, aytishga oson bo‘lgani uchun ularni o‘g‘il bolalar ham kattalardan o‘rganib, otalari qo‘sh haydayotganda kuylagan. Shu masalaga qiziqib, bolalar orasida so‘rov olib borganimizda, ulardan quyidagi qo‘shiqlarni yozib oldik:

Yer yuzidan qor ketdi,  
Yur ho‘kizim, ho‘sh, ho‘sh.  
Ekin ekar chog‘ yetdi,  
Yur ho‘kizim, ho‘sh, ho‘sh!<sup>52</sup>

Aslida “ho‘sh-ho‘sh” murojaati sigirni sog‘ish jarayonida ayollar tomonidan ularga qarata aytiladigan undov so‘zidir. Bolalar buni onasidan eshitgani uchun, sigir va ho‘kizga faqat shunday murojaat qilinadi deb o‘ylab, qo‘shga qo‘shilgan ho‘kizga mana shu undovni ishlatgan.

Kattalar folklorida qo‘sh qo‘shig‘i sifatida keng tarqalgan quyidagi qo‘shiqni bolalar tilidan sal boshqacharoq yozib oldik: (*Qarang: 3.1 – jadval*)

### “3.1-jadval.” Qo‘sh qo‘shig‘i matni

| Kattalar folklorida   | Bolalar folklorida   |
|---|--|
| Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,<br>Ustimda o‘ynar qaldirg‘och.<br>Yuray desam, qornim och,<br>Men qo‘shga qanday yarayin. | Shoxlarim quloch-quloch,<br>Yo‘qdir kuchim, qornim och.<br>Tepamga qo‘ngan qaldirg‘och,<br>Men qaytib qo‘shga yaray. |

Ushbu qo‘sh qo‘shig‘ining kattalar kuylagan namunasi bilan bolalar ijro etgan shakli o‘zaro qiyoslansa, bolalarning kattalar kabi yoyiq va murakkab qo‘shma gaplardan emas, aksincha, yig‘iq sodda gaplardan foydalangani kuzatiladi. Shuningdek, bolalar badiiy tasvir vositalardan ham foydalanmagan. Asl matndagi “gaz-gaz quloch” mubolag‘ali epiteti hamda “o‘ynar qaldirg‘och” tashxisi tushirib qoldirilgan. Keltirilgan misralar oddiy, bo‘yoqsiz sodda gaplardan iborat. Shunday qo‘shiqlar ham borki, ularda ota yoki onaning yonida o‘zi qatorida mehnat qilayotgan bolasini olqash, unga sog‘lik va baxt tilash motivi asos qilib olingan. Bolalar qo‘shiqlaridan yana biri “Qo‘riqchi qo‘shig‘i”dir.

<sup>52</sup> Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanida yashovchi Oynoxol momodan 2018-yilda I.Shoymardonov tomonida yozib olingan.



Bolalar tasvirlarni bevosita hayot voqeliklaridan oladilar. Masalan, surxon bolalari uloq chopish, ya'ni ko'pkari o'yinining ko'p guvohi bo'lishadi. Chunki surxon to'y, bayram sayllari deyarli ko'pkarisiz o'tmaydi. Shuning uchun bolalar bunda chavandozlarning terlab chopishini bevosita kuzatishlari bois uni o'z aytimlarida tasvirlashga uringanliklari ko'rinadi. Bunda ular ushbu holatni yanada mubolag'ali qilib, chavandozlardan quyilayotgan terni xuddi buloqlardan qaynab chiqayotgan suvga o'xshatganlar.

## XULOSA

1. Surxon vohasi qadimdan dostonchilik va baxshichilik an'analari bilan e'tiborga tushib kelayotgan etnografik madaniy markazlardan biridir. Unda bolalar folklorining ham betakror, o'ziga xos namunalari yaratilgan va aksariyati hanuzgacha kattalar va bolalar repertuarida saqlanib kelmoqda. Har bir xalqning o'ziga xos bolalar folklori borligi kabi surxonliklarning ham shunday ijod durdonalari mavjud bo'lib, unda mazkur hudud aholisining bolajonligi, turmush tarzi, milliy qadr-qimmatni yuksaltirishga qaratilgan orzu-intilishlari aks etadi.

2. Surxon bolalar folklori yillar davomida sayqallanib, avloddan-avlodga o'tib, ijobiy o'zgarishlarga uchrab, badiiy va estetik tomondan shakllanib, yangi-yangi namunalar bilan boyib, bizning davrgacha yetib kelgan. An'anaviy janrlar mazmuniga zamonaviy mavzular singdirib borilgan. Surxon folklori umumturkiy va umumo'zbek folklori areal tarkibida o'z o'rniga ega. Unga aloqador bolalar folklori ham janriy rang-barangligi, hududiy-lokal, ijro xususiyatlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

3. Surxon bolalar folklorini bolalarni avaylash, erkalash, ovutish, parvarish qilish jarayonida kuylanadigan alla, huy-ya, erkalama, ovutmachiq, qiziqmashiq, aytim-olqishlar, o'yin folkloriga aloqador chorlama, cheklashmashiq, tarqalmashiq, bolalar mehnatiga oid qo'riqchilik, poda boqish qo'shiqlari, mavsum-marosim, lirik, tarixiy, zamonaviy qo'shiqlar tashkil qiladi. Ularning har biri o'z poetik xususiyati, mazmuni, ijro etilish tarzi bilan bir-birlaridan farqlanib turadi.

4. Surxon vohasi bolalar folklorining lokal belgilari, avvalo, uning tilida hududga oid joy nomlari (toponimlar), daryolar nomi (gidronimlar), tog' nomlari, shevaga xos so'zlar (dialektizmlar), etnografizmlar, eponimlar qo'llanishida va obrazlantirilishida aks etadi. Ayni damda ularning obrazlantirilishi hudud bolalar folklori poetikasiga xos muhim lokal belgilardan biri hisoblanadi.

5. Surxon vohasidan uzoq yillar davomida to'plangan bolalar folklori namunalari janrlari, qo'shiq turlari, ularning mavzu mundariyasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar tarkibi, til xususiyatlari, ijro vaqti, o'rni, holati va tuzilishi shu hudud xalq og'zaki ijodi an'analari haqida ilmiy tasavvur hosil qila oladi. Bolalar folklorining ko'pi, asosan, bolalar o'yinlari bilan bog'liq. Shuning uchun ham bu qo'shiqlar, aytimlar o'sha o'yin turlariga muvofiq ravishda kuylanadi va zavq bag'ishlashga xizmat qiladi.

6. Surxon bolalar folklori namunalari har birining o'z vazifaviy xususiyati mavjud. Ularning lokal belgilari nomlanishidagi va ijro etilishidagi o'ziga xosliklarga qarab ham belgiladi. Ulardan biri huyalar, sanama-topishmoqlardir. Surxon bolalar folklorida janriy ko'chish hodisasi ham kuzatiladi.

7. Surxon bolalarining mavsumiy qo‘shiqlari sof mavsumiy, mavsumiy-marosimiy va mavsumiy o‘yin-qo‘shiqlari sifatida namoyon bo‘ladi. Hudud bolalarining yumoristik ruhdagi tegishmachoqlari, chandishlari, satirik ruhdagi masxaralamalari ham mavjud. Bolalar mehnat faoliyatini boshlangunga qadar hayotlari turli xil mashg‘ulotlar bilan to‘lgan bo‘ladi. Bular – bolalar o‘yinlaridir. O‘yinlar – oddiy jismoniy harakatdangina iborat bo‘lmay, ularda ma’lum bir ritm, ohang, badiiy so‘z, syujet va kompozitsiyasiga ega bo‘lgan, bolalarning jiddiy va qiziqarli mashg‘ulotlaridir.

8. Surxon bolalar folklori namunalari janriy tarkibi jihatidan boy bo‘lib, umumo‘zbek bolalar folkloridagi janrlar bilan umumiylik kasb etishi barobarida o‘ziga xosliklarga ham ega. Lekin umumo‘zbek bolalar folklori janrlaridan nomlanishi, ijro etilish tarzi, badiiy til xususiyatlari, poetik qurilishi, obrazlar va motivlar strukturasi jihatidan farqlanadigan namunalarga ham ega. Qadimdan o‘ynalib, kuylanib kelayotgan bolalar folklori yoshlarni jismoniy va ma’naviy tarbiyalash ahamiyatiga ega bo‘lsa, ularda kuylangan qo‘shiqlar, aytishuvlar, chorlamalar va boshqa folklorning janr turlari bolalarni ziyraklik, hushyorlik, insonparvarlik, hayotsevarlik, vatanparvarlik, tabiatsevarlik, ilm va hunar egasi bo‘lish hamda boshqa fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

9. Barcha hududlardagi kabi Surxon bolalar o‘yin folklori kompozitsiyasida sanama, cheklashmachoq, tarqalmachoq, arazlama, yarashtirgich singari janrlar o‘rni sezilib turadi. Xususan, sanamalar ma’lum bir o‘yindagina qo‘llanilishi, qaysidir bir o‘yin bilan qattiq bog‘langan bo‘lishi, boshqa o‘yinlarda qo‘llanmasligi jihatidan maxsus (xoslangan) va umumiy (barcha o‘yinlarda qo‘llanuvchi) turlari, savol-javobga asoslangan dialogik ko‘rinishlari ajralib turadi. O‘yin qo‘shiqlar esa goh yakkaxon o‘yin ishtirokchisi tomonidan kuylansa, goh naqoratlar asosida o‘yinning barcha ishtirokchilari qo‘shilishib kuylashgan.

10. Surxon bolalarining tez aytish, guldur-gup, chandish janrlari ma’naviy o‘yinlardir. Ular so‘z o‘yinlaridir. Bu xil ijod namunalarining yaratilishida kattalarning ham aralashuvi bo‘lganligini qayd etish lozim. Chunki bolalarga mo‘ljallangan ayrim o‘yinlar va qo‘shiqlarda kattalar ham ishtirok etadi. Ayrim qo‘shiqlar ijrosida ham kattalar va bolalar ijrochiligi, duet shakllari mavjud. Har bir yangi avlod o‘tmish avlodlarning tajribasini yosh avlodga o‘rgatadi. Bolalar folklorining yoshlarni tarbiyalashdagi roli kattadir.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ШОЙМАРДОНОВ ИЛХОМ АЛИХОНОВИЧ**

**ДЕТСКИЙ ФОЛЬКЛОР СУРХАНСКОГО ОАЗИСА  
(СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, КЛАССИФИКАЦИЯ И  
ПОЭТИКА)**

**10.00.08 – Фольклороведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискании учёной степени доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Бухара – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована под номером № В2023.4.PhD/Fil4262 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Учёного совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)), а также на сайте «Ziyonet» ([www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz))

Научный руководитель: Ураева Дармон Саидахмедовна  
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Сариев Санъатжон Матчонбоевич  
доктор филологических наук (DSc), доцент

Тургунов Шерали Долихонович  
доктор философии по филологическим наукам (PhD),  
доцент

Ведущая организация: Каршинском государственном университете

Защита диссертации состоится « 15 » « март » 2024 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании разового Научного совета при Научном совете DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 Бухарском государственном университете (адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (0 365) 221-29-14; факс: (0 365) 221-29-14, email: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 188). Адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (0 365) 221-29-14.

Автореферат диссертации разослан « 3 » « март » 2024 года  
(Протокол-реестр рассылки № 1 от « 3 » « март » 2024 года)



Е.С. Саидов  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филологических наук (DSc), профессор

А.Р. Азмедов  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филологических наук, доцент

С.М. Сариев  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор филологических наук  
(DSc), доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В литературе народов мира особое место занимают образцы устного художественного творчества, созданные взрослыми и детьми. Эти шедевры творчества, рассматриваемые как «детский фольклор», привлекают внимание по своему жанровому составу, характеру художественного исполнения, этнофольклористической и этнодидактической сущности, этнопедагогическим задачам. Такие шедевры фольклора, влияющие на нравственно-духовное воспитание, физический и духовный рост будущего поколения, приобретают все большее значение в изучении культурного образа жизни каждого народа, мечтаний человечества о завтрашнем дне.

В мировой фольклористике большое внимание всегда уделялось сбору, научному изучению детского фольклора, отражающего самобытность населения, проживающего на каждой территории, его отношение к воспитанию подрастающего поколения. В качестве актуальных научных задач сохраняется определение жанровой системы и ее состава, историко-генетических, социокультурных, духовно-духовных основ, стадий развития, структурно-смысловых, идейно-художественных, композиционно-исполнительских особенностей, закономерностей жизни в постфольклорном стиле. В связи с этим среди таких актуальных проблем является задача реального и локального научного исследования жанрового многообразия детского фольклора, распространенного в Сурханском оазисе.

В период нашей национальной независимости, когда повышалось внимание к духовным ценностям, еще больше внимания уделялось сбору и исследованию детского фольклора по всем регионам. Так как «... проведение фундаментальных и прикладных научно-исследовательских работ в области нематериального культурного наследия, организация этнофольклорных экспедиций»<sup>1</sup> является одним из вопросов, стоящих сегодня перед фольклористической наукой и поднявшихся на уровень государственной политики.<sup>2</sup> Потому что народное искусство, по своей природе – это детская песня человечества. Поэтому одним из актуальных и важных вопросов является раскрытие как отдельной системы, как локальных, так и специфических творческих и исполнительских особенностей жанров детского фольклора. Выявление особенностей, связанных с генезисом и поэтикой детского фольклора, позволяет обосновать закономерности узбекского фольклорного искусства. Научное решение таких важных задач служит расширению кругозора теоретической фольклористики.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son Qarori.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda nutqi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019. 7 aprel. – № 68.

Узбекистана на 2022-2026 годы”, в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-300 от 11 сентября 2023 года “О мерах по качественной и своевременной реализации стратегии «Узбекистан – 2030» в 2023 году”, Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-405 от 25 декабря 2023 года «О дополнительных мерах по развитию охраны, научного изучения и пропаганды нематериального культурного наследия», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан ПКМ-59 от 7 февраля 2022 года «О мерах по организации и проведении международного фольклорного фестиваля «Бойсун бахори», а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям науки и технологии Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства, а также пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Изучение детского фольклора в мировой и русской фольклористике особого внимания заслуживают исследовательские работы, выполненные такими учеными, как Э.Б. Тэйлор, А. Диваев, А. К. Боровков, В. П. Аникин, Г. Д. Коган, М. Н. Мельников, В. Виноградов, Л. П. Потапов, Е. В. Померанцева.<sup>3</sup>

